

**MO`TAZILA OQIMINING AJRALIB CHIQIB, TURLI TOIFALARGA  
BO`LINISHI VA ULARNING AQIDAVIY QARASHLARI**

*Sheraliyev Jo`rabek O`lmasvoy o`g`li  
 O`zbekiston xalqaro islam akademiyasi talabasi  
 Telefon raqami: [97 543 39 33](tel:975433933)  
 Ilmiy rahbar: M.M.Agzamova  
 Tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori PhD,  
 O`zbekiston xalqaro islam akademiyasi dotsent v.b.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Islom dinidagi dastlabki aqidaviy oqimlardan hisoblangan, mo`tazila yo`nalishining vujudga kelishi, ularning aqidaviy g`oyalari bayon qilingan. Mo`tazilalar hozirda yo`q bo`lib ketgan degan fikrlar olg`a surilsada, lekin ularning g`oyalalarini insonlar hayotiga tatbiq qilish jarayoni hozirda ham davom etmoqda. Aynan bu maqola sizga ularning botil g`oyalalarini tahlil qilib beradi.

**Kalit so`zlar:** Mo`tazila, Vosiliya, aqida, firqa, Amroviya, Nazzomiya, gunoh, gunohi kabira

Islom ta`limotida oqim – firqalarga bo`linishni man qilgan. Alloh taolo Qur`on oyatlarida o`z bandalarini tafriqa, ya`ni firqa – guruhlarga bo`linishdan qaytargan. E`tiborli jihat – musulmonlar jamoasidan ajralib chiqqan oqimning o`zi ham yahlidlikni ifoda etmaydi. Balki har-bir oqim o`z ichida yana turli toifa va guruhlarga bo`linishini kuzatish mumkin. Musulmonlarning 73 oqimga bo`linib ketishi, ulardan bittasidan boshqalari to`gri yo`ldan adashishi haqida hadis borligi ma`lum, lekin 73 oqim deganda barcha jihatdan bir-biridan tamomila farq qiluvchi guruhlarni tushunish kerak emas. Balki 73 oqimning asosiy qismini ichidan o`nlab kichik toifalarga bo`linib ketgan shia`, mo`tazila, murjia, qadariya kabi yirik oqimlar tashkil qiladi. Ulardan biri mo`taziladir, manbalarda qayd etilishicha, mo`tazila firqasi juda ham ko`plab toifaga bo`linib ketgan. Ko`pchilik insonlar mo`tazila desa, bir dona toifani tushunishadi, lekin uning o`zi ham juda ko`plab guruhgaga bo`linib ketganini, mo`tazila atamasi o`sha guruhlarni jamlovchi bir termin ekanligidan esa ko`pchilikning xabarları yo`q. Ularning ichidagi mashhurlarini va ularning g`oyalalarini zikr qilamiz.

Kalom ilmi deganda, inson ko`z o`ngida, avvalo, mo`taziliya ta`limoti namoyon bo`lishi tabiiy holdir. Chunki aynan ushbu ta`limot vakillarining aqidaviy qarashlari natijasida ushbu ilm "kalom" deb nom olgan. Shuningdek, kalom ilmida birinchi yirik yo`nalish ham Hasan Basriyning sobiq shogirdlaridan bo`lgan Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubaydga borib taqaladi.

Mo`taziliylar Damashq va Bag'dod xalifaligi hayotida VII-IX asrlarda muhim o`rin tutganlar. Hasan Basriy davrasidan shogirdlari Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd

o'zlarining "manzila baynal manzilatayn" (arosat) mavzuidagi aqidalari bilan ajralib chiqadilar va "mo'tazila" (ajralganlar) nomini oladilar. Umaviy va xalifa Hishom ibn Abdulmalik davrida Shayx Hasan Basriy huzuriga bir odam kelib: "Ey dinimizning peshvosi, zamonamizda bir jamoa paydo bo'lgan, ular gunohi kabira qiluvchilarni kofir hisoblaydilar. Yana bir jamoa esa kofirga toat foyda qilmagandek, mo'minga ham gunoh zarar qilmaydi, deydilar. Ular haqida siz nima deysiz?", - deb so'radi. Hasan Basriy fikrga cho'mib, javob berishga ulgurmay Vosil ibn Ato o'rnidan turib, masjid ustuniga suyanib dedi: "Men gunohi kabira qilganni mutloq mo'min demayman, mutloq kofir ham emas, ikkovining o'rtasidagi manzilatdadir. Mo'minlik maqtov ismdir, fosiq esa maqtovga loyiq emas, demak bunday odam mo'min bo'lolmaydi, Uni kofir ham deb bo'lmaydi, chunki u shahodat kalimasini aytgan. Agar tavba qilmay o'lsa, abadiy do'zaxga tushadi, chunki oxiratda faqat ikki toifalar: jannatga tushuvchilar va do'zaxga tushuvchilargina bo'ladi. Lekin fosiqning azobi kofirning azobidan yengilroq bo'ladi", - deb javob beradi. Hasan Basriy: "Vosil bizlardan ajradi ", - dedilar. Shundan buyon bu toifa "mo'tazila" (ajralgan) deb nomlanadi. Mo'taziliylarning o'zlarini ham doim bir-biri bilan mubohasada bo'luvchi bir necha guruhlarga bo'lingan edilar. Ularning eng katta va kuchlisi Bag'dod va Basra maktablari edi. Bag'dod maktabi boshida Bishr ibn Mu'tamar, Basra maktabi boshida esa Vosil ibn Ato turardi. Mazkur ikki mакtab vakillari orasida kuchli bahslar bo'lgan. (1:85-86)

Shuningdek, mo'taziliylar Allohning qazo va qadarini inkor etib: "Inson o'z taqdirini o'zi yaratadi" deganlari uchun ular "qadariylar" deb ham nomlangan. Lekin ularning o'zlarini buni inkor etganlar. Ahli sunna e'tiqodiga ko'ra hayr va sharrning (yaxshilik va yomonlikning) Xoliqi aslida Allohdir. Mo'taziliylar fikricha, Alloh sharni (yomonlikni) taqdir qilmagan va u bilan hukm ham etmagan. Agar yomonlik bilan hukm etsayu keyin azob bersa, Alloh o'z bandasiga zulm qilgan bo'ladi degan aqidani ushlaganlar. Mo'taziliylar ash'ariya va moturudiya kabi aqlni naqliy dalillardan keyingina emas, balki birinchi o'ringa qo'yganlar. Aql va fikrni asosiy manba qilib olib, unga to'g'ri kelmasa, hatto oyat va hadislarni inobatga olmay, balki nususni aqlga bo'ysundirmoqchi bo'lganlar. Shuning uchun ham salaf ulamolari, ahli hadis ulamolari va moturudiya va ash'ariya vakillari mu'taziliya ta'limotini tanqid qilganlar va ba'zi o'rinlarda ularni hatto kufrda ayblaganlar. Mo'taziliya ta'limotining ahli sunna val jamoa e'tiqodiga zid bolgan asosiy aqidaviy qarashlari quyidagilar bo'lgan: Allohning ismi va sifatlari azaliy emas, ular hech qanday ma'no va mazmunga ega emas. Allohning ismi bilan sifatlari bir narsa; Qur'on maxluqdir. U azaliv emasdir; Bandaning foydasini ko'zlab ish qilish Allohning zimmasiga vojib. Bandaning qudrati va toqati Allohga bog'liq emas. Ularning fikricha, fe'llarni bandaning o'zi yaratadi; Qatl etilgan banda ajalidan oldin o'lgan hisoblanadi; Halol luqma bandaning o'z rizqidir, lekin harom luqma esa aslida bandaning rizqi emas; Allohning irodasi hodisdir, qadim emas; Alloh faqat yaxshilikni iroda qiladi, yomonlik esa uning irodasidan tashqaridadir;

Amallar imonning tarkibiga kiradi va amallar imonning asosiy ruknidir; Bandaning imoni uning amallariga qarab kamayib va ko'payib turadi; Gunohi kabira qilgan musulmon imon bilan kufr o'rtasida qolur; Gunohi kabira qilgan mo'minlar do'zaxda abadiy qoladilar; Shafoat faqat yaxshi odamlarga nisbatan qilinur. Gunohlarni hech kim shafoat emas; Jannat bilan do'zax hali yaratilmagan. Chunki Alloh do'zax ahllari va jannat ahllari sonini qiyomatgacha aniq bilmaydi; Qabrdagi azob yoki rohat, qiyomat tarozusi, Pul sirot, Havzi Kavsar kabilarning hammasi aslida yo'q narsa; Avliyolarning karomati bo'limgan narsa. Chunki ularning karomati payg'ambarlar mo'jizalari bilan bir narsa bo'lib qoladi; Muqallid (boshqalarga taqlidan mo'min odam)ning imoni qabul qilinmaydi (masalan, ota-onasi mo'min bo'lgani uchun mo'min hisoblagan). (1:88-89)

Mo'tazila mazhabi besh asosga bino qilingan: Adl – Alloh taolo yomonlikni yaratmaydi ham, unga hukm ham qilmaydi. Chunki agar Alloh yomonlikni yaratib turib, so'ngra uni qilganlarni azoblasa, jabr (zulm) qilgan bo'ladi. Alloh taolo odildir. Jabr qilmas. Tavhid – Alloh bir – yakkayu yolg'iz. Shuning uchun Uning sifati ham bo'lishi mumkin emas. Allohning tavhidi uni ko'rishni man qiladi. Chunki U ko'zga ko'rinsa, jismi va jihatni bor bo'lib qoladi. Qur'on Alloh taoloning maxluqi bo'lmasa, Allohning tavhidiga putur yetadi. Va'd va va'iyd – Alloh taolo va'da qilgan narsa ham, qo'rqtigan narsa ham bo'lishi shart. Yaxshilik qilganga mukofot, yomonlik qilganga jazo berilishi lozim. Shuning uchun gunohi kabira qilgan odamni Alloh taolo mag'firat qilmaydi. Ikki manzila o'rtasidagi manzila – Gunohi kabira qilgan odam iyomon manzilasi bilan kufr manzilasi o'rtasidagi manzilada bo'ladi. Amri ma'ruf va nahyi munkar – har bir mo'min amri ma'ruf, nahyi munkar qilishi vojib.

Horun ar-Rashid zamonida Abul Huzayl (hijriy 235 sanada vafot etgan) ularning mazhabini bayon qiluvchi ikkita kitob tasnif qildi. U bu mazhabni besh asosga: adl, tavhid, va'da qilib qo'rqtigandan narsaning bo'lishi va ikki manzila o'rtasidagi manzila, amri ma'ruf va nahyi munkarlardan iborat asoslarga bino qildi.

Ular haq bilan botilni aralashtirib yubordilar. Bid'atning sha'ni o'zi shunday, haq va botilni o'z ichiga oladi. (2:35-36)

Umuman olganda, Mo'taziliya firqasi deganda bu umumiy firqanining nomi bo`lib, aslida shu nom ostida juda ham ko`plab adashgan firqalar mavjud va ularning ham o`zlariga yarasha g`oyalari bilan ajralib turishlari va har bir firqanining ozida ham ko`plab ixtiloflarga to`la ekanini bilib olishimiz mumkin. Endi ularning davlat siyosatida o`z ta`sirini korsata olgan va o`zi bilan insonlarni ergashtirib, bir muddat ularning ongalarini zaxarlashga muvaffaq bo`lganlari bilan tanishib chiqsak.

Vosiliya: Bu Firqaning yetakchisi Vosil ibn Ato bo'lib, u mo'tazila yuksalishining eng birinchi asoschisidir. Vosil ibn Ato G'azzol (80/699-131/749 y.) Hasan Basriyning shogirdi bo'lgan va aqlga tayanib fikr yuritganligi sabab Ahli Sunna val-Jamoadan ajralib chiiqqan. Uning fikricha, «gunohi kabira qilganlar qiyomat kunida ikki

manzilda bo'lishadi», degan g'oya oldinga surilgan, ya'ni bu ikki manzil orasidagi yana bir manzildir.

Haruriylardan hisoblangan mo'taziliylar Ali, Muoviyva va bitimga rozi bo'lмаган kishilar ixtiloflashgan paytda «sahobalarning ishi bizga shubha tug'dirdi», – degan odamlardir. Ularning nazdida, agar ulardan avvalgi ish to'g'ri bo'lганida bitim ham haqqoniy bo'lar edi. Birinchi ish botil bo'lib, ikki firqaning hech biriga rahbarlik qila olmasdan, ulardan uzoqlashadi. Kimki, u ikkisiga ergashsa, xato qilgan bo'ladi. Chunki imon so'z va amal bo'lib, ular xaqida bizning bilganimiz shubhalidir. (3:66)

**Амравия:** Фирканинг асосчиси Амр ибн Убайд булиб, бобоси Кобулдан аср тушиб келган. Бани Тамим томонидан озод этилган кул эди. Амр ибн Убайд тақдир масаласида Восил ибн Ато билан хамфикр булган. Шунингдек, гунохи кабира килган киши мумин хам эмас, коғир хам эмас, degan akiydasini kуллаб-куватлаган. (3:67)

**Nazzomiya:** Ibrohim ibn Sayyor Nazzom tarafдорлари. Nazzomiyлarning nazdida ijmo, xabarul vaxiy va qiyos hujjat emas, shuningdek, banda qodir bo'lган narsani Alloh, hal qila olmaydi. Ibrohim Nazzom: «Alloh, hech narsa emas» e'tiqodidagi har qanday inson Uni harakatsizlikda ayblab, vahmiylar qarashlarini inkor qilgan bo'ladi. «Alloh, – bir narsa» e'tiqodidagilar esa Uni muayyan bir narsaga o'xshatib, kofir bo'ladi. Chunki “narsa”ga shubha, gumon va o'zgarish mansub bo'lib, «Alloh, ulardan holi», deydi. Alloh, taolo boshqa narsalarga o'xshamaydigan narsa bo'lib, O'zini vasf qilgan narsa bilan sifatlangan. Allohning ismi va sifatlari bir. Faqat ularning ma'nosigina turlichay. Alloh, taolo barcha sifatlari bilan azaliydir. Ism zotsiz, zot esa ismsiz bo'lishi mumkin emas. Chunki ismlar zotlarning aksi, zotlar esa ismlarning aslidir. (3:69)

**Murdoriya:** Firqaning asoschisi Iso ibn Subayh, bo'lib, uning laqabi Abu Muso Murdordir. Murdor fors tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida «bulg'angan», “ifloslangan”, “najas” ma'nolarini bildiradi. Uni «Motazila yo'nalishining rohibi», deb ham atashar edi. Uning buzuq e'tiqodlaridan biri – odamlar ham Qur'oni karim oyatlariga barobar keladigan oyatlarni ijod qilib keltirishlari mumkin, degan. Shuningdek, u Alloh taolo bandalariga zulm qilishi va yolg'on gapirishi ham mumkin, degan. Yana u kimki, Alloh taoloni ko'z bilan ko'rish joiz desa kofirdir degan. Murdor o'zining ustozlarini ham kofirga chiqargan va ular ham Murdorni kofir deb hukm qilganlar.

Jubboiya bu firqa rahbari – Abu Ali Muhammad Jubboiy. U Eron bilan Basra oralig'idagi Xuzistonda yashab mintaqa aholisini zalolat yo'llariga kirib ketishlariga sababchi bo'lган. Aqidasi mo'taziliya bo'lib, Basra aholisi shu mazhabga e'tiqod qilib kelar edi. Jubboiyning buzuq, aqidalaridan biri shu ediki, Alloh taolo biror bandasining tilagini bajo keltirsa, bandasiga itoat etgan bo'ladi. Zero o'zganining murodini amalga oshirish unga itoat qilish demakdir, deb da'vo qilar edi. Bu Aqidasi Abul-Hasan

Ash'ariy tomonidan rad etilganiga qaramay u o'z so'zidan qaytmagan. Yana buzuq aqidalaridan biri – Allohga qilgan ishiga qarab ism berishni joiz deb bilishdir. Masalan, uning aqidasiga binoan Alloh, ayollarga homila ato etsa, Uning nomi «Ayollarni homilador etuvchi» bo'lishi kerak emish. Jubboiy 303/916 yilda vafot etgan. (3:69-70)

Bahshamiya firqasining rahbari Jubboiyning o'g'li Abu Hoshimga ergashib adashganlarning firqasi shu nom bilan atalgan. Bu atama Abu Hoshim so'zidan olingan bo'lib, «Abu Hoshimiya» so'zining qisqartirilgan shaklidir. Firqaning buzuq, aqidalaridan ayrimlarini sanab o'tamiz: Inson bir ishni bajarishdan oldin unda bajarish qudrati mavjud bo'ladi, deb e'tiqod qiladi. Vaholanki, ahli Sunnaga ko'ra, inson bir ishni qilishni iroda qilib bajarishga harakat qilgan paytda qudrat beriladi. Uning so'ziga ko'ra, mukallaf odam toat-ibodat qilmay o'lsa, azoblanadi. Zero, u osiydir va gunoh ish qilishi ham mumkin edi. Kabira gunoh qiluvchilarga ikki hissa jazo berilar emish. Biri gunoh qilgani uchun, ikkinchisi uni tark etmay bajargani uchun. Birovning qilgan ishi uchun boshqa odamning savob yoki gunohga ega bo'lishi. Masalan, muhtojga sadaqa qil deb buyurgan kishi sadaqani olgan kishining minnatdorchilik bildirishiga ega bo'ladi. Gunoh ishni buyurib qildirgan kishi gunohni qilgan kishi tomonidan malomat qilinishi joiz emas. Bir gunohdan tavba qilgan odamning tavbasi, agar u boshqa gunohni qilishda davom etsa, qabul bo'lmaydi, degan aqidasi. Vaholanki, banda qaysi gunohidan tavba qilib kechirim so'rasha, o'sha gunohini Alloh taolo kechirishi mumkin. Bunda uning boshqa gunohlardan butunlay qaytgan bo'lishi shart qilinmagan. Gunoh qilishga yaramay qolgan odamning tavbasi ham qabul bo'lmaydi, deb da'vo qilgan. Vaholanki, Abu Hoshimning o'zi doimiy ravishda ichkilik bilan hayot kechirib, mastlik holida vafot etgan ekan. Alloh taolo borliqni butunlay yo'q qilishi mumkin. Lekin bir qismini alohida yo'q qilishga qodir emas, degan. Hajda Arafotga borib turish, Ka'bani tavof etish Safo bilan Marva orasida sa`y qilish vojib emas chunki bu ishlarni ulovga mingan holda ham bajarish mumkin edi, deb da'vo qilgan. Umuman, mo'tazila firqasiga e'tiqod qiluvchilarning o'zlarini ham bir xil aqidada bo'lishmagan balki bir-birining fikriga qarshi chiqib aqidaviy ixtilofda umr kechirib o'tishgan. (3:70-72)

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, mo`tazila firqasining bunday bo`linishiga sabab, Qur`oni Karimdag'i dalolati zonniy bo`lgan oyatlarni o`zlaricha naqlga emas balki aqlga tayangan holda tafsir qilganlar va agarda ular aqlga to`gri kelmasa, qabul qilmaganliklari va juda ham ko`p narsalarni rad etib, tug`yonga ketganliklarini bilib olishimiz mumkin. Yana bilib olishimiz lozim bo`lgan narsa shuki, mo`tazila umuman olganda barcha adashgan firqalarga nazar solsak, shu narsa ma`lum bo`ladiki, ular bir nom ostida bo`lsalar ham juda ko`plab toifalarga bo`linib ketishgan. Faqatgina Ahli-sunna val-jamoa o`z aqidasida qiyomatgacha sobitdir. Yana bir muhim jihatini bildikki, ularning o`z firqalarining o`zlarida ham juda ko`plab ixtloflar bo`lib yanada mustaqil toifalar paydo bo`lishiga sabab bo`lgan.

**Manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islomshunoslik asoslari//o'quv qo'llanma//M.M.Agzamova – Toshkent: «O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2020, – 136 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqidilmi va unga bog`liq masalalar, – Toshkent: «Hilol-nashr», 2019, – 376 b.
3. Tulepov, Aydarbek Islom va aqidaparast oqimlar. Ikkinchi nashr / Mas`ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: «Sharq» , 2013. – 336 6.